

ZAMONAVIY JARROHLIKDA MALLORY–WEISS SINDROMINI DAVOLASHDA YANGICHA QARASHLAR

Ashuraliyev Shohijaxon Xasanboyevich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Ko'p tarmoqli klinikasi Shoshilinch jarrohlik bo'limi jarrohi.

Sattarov Oybek Taxirovich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 1- son fakultet va gospital jarrohlik kaferdasi professori. T.f.d.

Annotatsiya. Mallory–Weiss sindromi (MWS) ko'pincha to'satdan va kuchli qayt qilish, qusish, qorin bo'shlig'ida bosim oshishi yoki spirtli ichimliklar iste'moli natijasida yuzaga keladi. Kasallikning asosiy klinik belgisi — yuqori me'da-ichak qon ketishi bo'lib, bemorda “qon qusish” (hematemez) va qora najas (melena) kuzatiladi.

Kalit so'zlari: Mallory–Weiss sindromi (MWS), endoskopiya, laborator tekshiruvlar, epidemiologik tadqiqotlar.

Epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yuqori oshqozon-ichak qon ketishining 5–15 % hollari Mallory–Weiss sindromi hissasiga to'g'ri keladi. Kasallik ko'pincha 40–60 yosh oralig'ida uchraydi, erkaklarda esa ayollarga nisbatan biroz ko'proq aniqlanadi. Xavf omillari qatoriga spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, diafragmal hiatal churrasi, gastroezofageal reflyuks kasalligi, og'ir homiladorlik davridagi qusish va iatrogen manipulyatsiyalar (endoskopiya, intubatsiya) kiradi.

Endoskopiya — Mallory–Weiss sindromini aniqlashda “oltin standart” hisoblanadi. Endoskop yordamida yorilish joyi va qon ketish manbai bevosita ko'riladi, zarurat tug'ilganda biopsiya olinadi.

Laborator tekshiruvlar — umumiy qon tahlili (gemoglobin, gematokrit), biokimyoviy ko'rsatkichlar, koagulyatsion testlar yordamida qon yo'qotish darajasi va bemorning umumiy ahvoli baholanadi.



Kompyuter tomografiya (KT) va boshqa instrumental usullar — oxirgi yillarda bu diagnostika orqali qon ketishning dinamikasini, shilliq pardadagi shikastlanish darajasini aniqlash mumkinligi ta'kidlanmoqda. Bu usul, ayniqsa, endoskopiyaga imkoniyat bo'lmaganda qo'llanilishi mumkin.

Risk baholash — bemorning yoshi, umumiy ahvoli, hamroh kasalliklari, qon ketish hajmi va takroriy qon yo'qotish ehtimoli asosida maxsus shkalalar yordamida amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, davolash taktikasini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davolash va zamonaviy yondashuvlarga qarasaq turli xildagi muolajalarni qo'llashini ko'rishimiz mumkin.

Konservativ muolajalarda qon ketish kuchsiz yoki to'xtagan hollarda bemor ko'proq kuzatuv ostida bo'ladi.

Infuzion terapiya, qon komponentlari bilan to'ldirish, proton nasos ingibitorlari (omeprazol, pantoprazol) qo'llanadi.

Sababchi omillarni bartaraf etish — spirtli ichimlikdan tiyilish, qayt qilishni to'xtatuvchi dorilar, reflyuks kasalligini davolash.

Endoskopik ligatsiya: rezina halqa yordamida qon ketayotgan joyni siqish.

In'eksion terapiya: adrenalin yoki boshqa sklerozant moddalarni yuborish orqali qon ketishni to'xtatish.

Termokoagulyatsiya: issiqlik energiyasi yordamida qon tomirini yopish

Jarrohlik va intervension muolajalar

Agar yuqoridagi usullar samara bermasa, jarrohlik yo'li bilan shikastlangan joy tikiladi yoki qon ketayotgan tomir embolizatsiya qilinadi. Bu esa zamonaviy sharoitda juda kam hollarda qo'llaniladi.

Endoskopik texnikalarning takomillashuvi: yuqori aniqlikdagi videoendoskoplar, mini-klipplar, argon plazma koagulyatsiyasi. Kompyuter tomografiya yordamida tezkor tashxis qo'yish imkoniyatining kengayishi. Klinik protokollarni standartlashtirish — turli mamlakatlarda yagona yondashuvni ishlab chiqish zaruriyati. Profilaktik chora-tadbirlar: hiatal churrani erta davolash, GERKn nazorat qilish, xavf omillarini kamaytirish.



Xulosa. Mallory–Weiss sindromi yuqori me’da-ichak qon ketishining muhim sababi bo‘lib, zamonaviy tibbiyotda uning tashxis va davolash usullari sezilarli darajada rivojlangan. Avvallari ko‘plab bemorlarda jarrohlik zarur bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda endoskopik usullar samaradorligi tufayli konservativ va minimal invaziv davolash yetakchi o‘rin egallamoqda.

Yangi texnologiyalar, jumladan yuqori sifatli endoskopl va KT diagnostikasining rivojlanishi, Mallory–Weiss sindromi bilan bog‘liq asoratlarni erta aniqlash va samarali davolash imkonini beradi. Kelgusida xalqaro standartlarni ishlab chiqish va profilaktik choralarga alohida e’tibor qaratish ushbu patologiyaning og‘ir oqibatlarini yanada kamaytiradi